

Namangan viloyatida Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025- yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 21,6 mingtani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash

Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024- yil 1- iyul holatiga, birlik	2025-yil 1- iyul holatiga, birlik
Mingbuloq tumani	1035	1179
Kosonsoy tumani	1310	1256
Namangan tumani	1400	1274
Norin tumani	1141	1131
Pop tumani	1620	1599
To'raqo'rg'on tumani	1425	1352
Uychi tumani	1261	1267
Uchqo'rg'on tumani	1580	1209
Chortoq tumani	1385	1382
Chust tumani	1910	1844
Yangiqo'rg'on tumani	1092	1248
Namangan sh.	6718	6907

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillastirildi

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025- yilning yanvar-iyunda 2007 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025- yilning yanvar-iyunda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 853 ta, sanoatda 325 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 255 ta hamda boshqa xizmatlarda 574 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2025- yilning yanvar-iyunda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Namangan shahrida 585 ta, Mingbuloq tumanida 175 ta, Kosonsoy tumanida 158 ta, Pop tumanida 151 ta hamda Chortoq tumanida 144 ta tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2024- yil yanvar-iyun oylarida, birlik	2024-yil yanvar- iyun oylarida, birlik
Mingbuloq tumani	155	175
Kosonsoy tumani	150	158
Namangan tumani	78	96
Norin tumani	124	127
Pop tumani	174	151
To'raqo'rg'on tumani	108	99
Uychi tumani	97	107
Uchqo'rg'on tumani	200	119
Chortoq tumani	136	144
Chust tumani	153	122
Yangiqo'rg'on tumani	151	124
Namangan sh.	664	585

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2025- yilning yanvar-iyunda YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 70,1 % ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 0,1 foizga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9 237,5 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 51,4 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 109,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on tumani (100,0 %), Norin tumani (99,9 %), Pop tumani (91,1 %) va Namangan tumani (82,9 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 5 970,3 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 92,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 110,9 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Norin tumani (98,6 %), Mingbuloq tumani (98,5 %) Kosonsoy tumani (98,4 %), va Chortoq tumani (98,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 24 651,7 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 84,5 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 106,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Pop tumani (94,8 %), Mingbuloq tumani (94,2 %), Kosonsoy (90,6 %) va Uychi (90,1 %)tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 13 369,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 97,2 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 107,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Chust (99,7 %), Chortoq (99,5 %), Kosonsoy (99,2 %), Uchqo'rg'on (99,1 %) va Yangiqo'rg'on (99,0 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 10 683,5 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 90,4 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 107,9 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Uychi (98,9 %), Yangiqo'rg'on (98,8%) Kosonsoy (98,7 %), va Uchqo'rg'on (97,9 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 17 271,5 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 73,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 111,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Yangiqo'rg'on (82,0 %), Mingbuloq (80,6 %), Namangan (80,6 %), Uychi (78,5 %) Kosonsoy (78,4 %) va Norin (78,3 %), tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025- yilning yanvar-iyunda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 152,4 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 47,1 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-iyunda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Yangiqo'rg'on, Norin, hamda Pop tumanlarida – 100,0 % ni, Chortoq tumanida – 84,8 %, Namangan shahrida – 65,5 % va Uychi tumanida – 65,4 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 322,7 million AQSH dollarini yoki jami importning 71,3 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Pop tumanida – 94,5 %, Norin tumanida – 94,5 %, Yangiqo'rg'on tumanida – 93,5 %, Uychi tumanida – 91,8 %, Namangan tumanida – 90,1 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 91,1 % ni tashkil etdi. 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,9 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 94,7 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024-,yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,7 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 98,4,% ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,4,% ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 96,4 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,2 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari
dinamikasi




V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-iyunda 35,2% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-iyulida esa 39,6 % ga yetgan yoki 2021- yilning yanvar-iyunida nisbatan 4,4 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-iyulida 60,8 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-iyulida 54,4 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-iyulida 4,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-iyuliga kelib, bu ko'rsatkich 6,0 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi

2021- yilning yanvar-iyulda 54,9 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-iyulida 44,9 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-iyulda 40,5 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-iyulda 51,1 % yoki 10,6 birlikka ko'paygan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-iyunida 4,6% ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-iyuniga kelib, bu ko'rsatkich 4,0 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda – 43,6 % ni, savdoda sohasida – 40,0,% ni va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 40,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi xizmatda – 60,2 % qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 56,6 % ni, va qurilishda – 53,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi sanoatda – 9,0 % ni, qurilishda – 7,6 % ni va savdo sohasida – 6,9 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)





V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Tadbirkorlik subyektlarini
kuzatuv bo'limi

Ijrochi:
A. Javharov
69 211-72-00 (5030)

Manzil:

